



## **MUSIQA TA'LIMI VA SAN'ATINING BUGUNGI GLOBALASHUV SHAROITDA MILLIY-IJTIMOIY AHAMIYATI**

**Muallif:** Panjiyev Qurban niyoz Berdiyevich<sup>1</sup>

**Affiliatsiya:** Xalqaro Nordik universiteti Musiqa ta'lifi kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc)<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14376982>

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqola musiqa ta'lifi va san'atining bugungi globalashuv sharoitda milliy-ijtimoiy ahmiyati hamda globalashuv sharoitida milliy musiqa an'analariga bo'lgan talab va ehtiyojning zarurati xususida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** musiqa, ta'lim, san'at, milliy, ijtimoiy, globalashuv, fonogramma, asl musiqa, suniy tovush, tabiiy tovush

Bugungi globalashuv jarayoni dunyodagi barcha sohalarga, jumladan, madaniyat va musiqa san'atiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Kompyuter, axborot yoki raqamli texnologiyalar, internet sahifalaridagi ijtimoiy tarmoqlar yordamida insoniyatning musiqaga bo'lgan talabi va extiyojlari tobora qondirilib borilmoqda. Ammo bunday isloxtolar tabiiy musiqaning jozibadroligini va aslligini, asl mohiyatini xiralashtirib qo'yayotgandek, go'yo.

O'sib kelayotgan yosh avlod faqatgina fonogramma orqali va boshqa shunga o'xshash vositalarda taralayotgan sun'iy tovushlarni eshitib emas, balki tabiiy ijroning go'zalligidan baxramand olib, musiqiy ong, musiqiy tafakkur, musiqiy xotirasini rivojlantirish orqali tarbiyalash shartdir.

Asl maqsad IT- texnologiyalardan mutlaqo voz kechish emas, balki ularni musiqada sodir bo'ladigan tabiiy jarayonlarga noxolis ta'sirini kamaytirish, ulardan faqatgina yordamchi atribut sifatida, yani asosiy tabiiy jarayonga yaqinlashtirmagan xolatda foydalanishdir. Negaki insoniyat tomonidan bir necha asrlar mobaynida yaratilgan va musiqa san'atining ustunlari hisoblangan, turli tajribalar vositasida yuzaga kelgan nodir asarlar, ishlab chiqilgan metodikalar va ushbu uslubiyotlarning mevasi bo'lmish durdona asarlar moxiyati yo'qolib qolayotgandek.

Olimlarning qayd etishlaricha, globalashuv dunyo madaniyatlari o'rtaсидаги chegaralarni yo'q qiladi va milliy madaniy merosni saqlashda jiddiy muammolar yuzaga keltirib chiqaradi. Raqamli texnologiyalar dunyo musiqa san'atini bir xillikka olib olib kelmoqda. Provad natijada milliy, mahalliy va etnik musiqiy ohang xususiyatlari tobora kamayib borayotganligi yana bir og'riqli muammo bo'lib kolmoqda. . Buning natijasida, millatimiz individulligi yani o'ziga xosligini yo'qotib ko'yish bilan birga, milliy musiqa san'atimiz bir qolipga tushirilgan tovushga o'xshab kolmoqda. Bugungi kunda kunda

raqamli texnologiyalarning kirib kelishi insonlarni suniy tovushga o'rgatib kuydi va buning natijasida ularning tafakkuri tabiiy musiqani anglashga qiynalmoqda, odamlar tafakkuri sayozlik girdobiga tobora kirib bormoqda.

Bunday xunuk xolatlar hamman ta'bini xira qilishi tabiiy. Bu dolzarb muammo ekanligining isboti sifatida dunyo olimlarining mazkur mavzu yuzasidan ilmiy-nazariy shaxsiy qarashlariga bir nazar tashlaymiz.

Darhaqiqat, musiqa san'atining milliy-ijtimoiy ahamiyati to'g'risida bir qator olimlar garcha boshqa-boshqa sohalarda bo'lsalarda o'zlarining nazariy qarashlarini bayon etganlar. Jumladan:

1. Edgar Moren (Etnologiya sohasi)da. Uning fikricha milliy musiqa "xotira banki" sifatida xalqning madaniy tarixini saqlaydi. Uning yo'qolishi, xalqning o'ziga xosligini yo'qotishiga olib keladi.

2. Klod Levi-Stross (madaniyat va globallashuv) masalalari bo'yicha mutaxassis-olim. Unga ko'ra, globallashuv jarayonida milliy musiqa o'ziga xoslikni yo'qotish xavfi bilan duch kelmoqda, ammo milliy musiqa xalq madaniyatini xalqaro darajaga ko'tarish vositasi ham bo'lishi mumkin degan fikrda.

Musiqa ta'llimining ijtimoiy ta'siri masalasida Lev Vygotskiy psixologiya): musiqa ta'llimi va san'ati bolalarning ijodiy rivojlanishiga musiqa ta'llimi ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa milliy musiqa ularda o'zligini anglash hissini oshiradi degan hoyani ilgari suradi.

O'zbek adabiyotida ma'rifatparvar Abdulla Avloniy musiqiy ma'naviyat vositasida milliy musiqa ta'llimi ma'naviy va axloqiy sifatlarini tarbiyalashning asosiy qismi bo'lib, u yosh aylodni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalaydi deydi.

globallashuvning musiqa san'atiga milliy-ijtimoiy ta'siri haqida bir qator olimlar o'z tadqiqotlarida quyidagi izohlarni keltirib o'tadi. Ijobiy tomonlari:

1. Yozef Rat. musiqa ta'llimi mutaxassisi:

"zamonaviy texnologiyalar milliy musiqa asarlarini dunyoga targ'ib qilish imkonini beradi; turli madaniyatlar o'rtasida o'zaro ta'sir va boyish jarayoni yuzga keltiradi" degan g'oyani ilgari suradi.

2. Zigmund Bauman (global madaniyat) xususida fikr bildirib "globallashuv milliy musiqa orqali xalqlarni birlashtirish uchun platforma yaratish imkonini beradi" degan hoyani ilgari suradi.

Salbiy tomonlari:

1. YuNESKOning madaniy meros bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda "Milliy musiqaga bo'lgan qiziqish globallashuvning ommaviy madaniyati ta'siri ostida tushub qoladi va kun sayin pasayib boradi, milliy musiqa va an'analar jahon standartiga moslashtirish jarayonida o'zgarib, yo'qolishi mumkin"ligi asoslangan.

2. Mishel Fuko (madaniyat siyosati) bo'yicha fikr bildirib, "globallashuv orqali madaniy gegemonlik kuchayadi, bu esa kichik madaniyatlarning qo'shimcha qiymatsizlanishiga olib keladi" deydi.

Musiqa ta'llimi va san'atining bugungi globallashuv sharoitda milliy-ijtimoiy ahamiyati yuzasidan o'rganilgan tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda qaraydigan bo'lsak, ushbu globallashuv quyidagi muammolar xavfidan insoniyatni ogohlantiradi. Jumladan:

1. Milliy musiqa an'analarining yo'qolish xavfi;

2. Zamonaviy musiqa standartlari ta'sirida mahalliy milliy musiqa an'analarining avloddan avlodga yetib bormaslik holatlari kuchayapti, turli ijrochilik uslublar kamayishi.

3. Milliy musiqa ta'limi va san'atiga yetarlicha e'tibor berilmay qolinishi va hokazo.

Mazkur muammolarni bartaraf etish yoki xavfini kamaytish boraitsda quyidagi yechimlarni tavsiya etish mumkin:

Robert Shuman (musiqa ta'limi) sohasidagi yirik olimlardan biri sanaladi. Uning fikriga ko'ra, milliy musiqa ta'limi uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish; bolalar uchun interaktiv o'quv materiallarini yaratish; YuNESKO Milliy madaniyatni muhofaza qilish loyihalarni hayotga tadbiq etish; milliy musiqa asarlarini faqat va faqat tabiiy ovozda kuylash; Xalqaro forumlarda milliy musiqa festivallarini o'tkazish.

Yana bir san'at psixologiyasi sohasidagi olimlardan Piter Bruk (san'at psixologiyasi)ning g'oyasiga ko'ra, musiqa ta'limida zamonaviy va milliy elementlarni uyg'unlashtirish, aholining ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan musiqa asarlarini avloddan-avloda buzmagan holda yetkazish va uni bardavomligini ta'minlash.

Musiqa ta'limi va san'atining bugungi globallashuv sharoitda milliy-ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazarlarni chuqur tahlil qilgan holda quyidagilarni izohlashga asos bo'ladi:

milliy musiqa ta'limi va san'ati – globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlab qolish uchun muhim vosita hisoblanadi;

muammolarni yechish uchun innovatsiyalardan foydalanish va davlat darajasidagi dasturlarni joriy etish;

muntazam ravishda dunyoda yuz berayotgan globalashuvlarning musiqa ta'limi va san'atining milliy an'analarini saqlashdagi ahamiyatini aniqlash, uning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qilib borish, tegishli yo'riqlarni Hukumat qarori bilan nazorat qilish;

milliy musiqa ta'limi va san'atining saqlanishi globalashuv davrida ham xalqning madaniy merosi sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolishni ta'minlash;

hamjihatlikda ishlash orqali milliy musiqa san'analarini keyingi avlodga yetkazish.

Yuqorida qayd etib o'tilgan muammolarni yechimi sifatida quyidagi tavsiyalarni bayon etamiz:

milliy musiqa an'analariga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish;

turli musiqa festivallari, tanlovlari va tadbirlarini muntazam va bosqichma-bosqich o'tkazish;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa mashg'ulotlari dasturini tuzishda faqat milliy musiqa merosidan foydalanish;

umumiy o'rta ta'lim maktablarida 1-9 sinflarda (1-4 sinflarda haftasiga 2 soat, 5-9 sinflarda haftasiga 1 soatdan) dars mashg'ulotlarini olib borish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa fani DTS, fan dasturi hamda darsliklarini yaratishda o'zbek milliy musiqa merosi musiqa an'analarga batafsilroq e'tibor berish lozim;

xuddi shunday oliy ta'lim tashkilotlari pedagogika sohasi musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishining Malaka talablari, o'quv reja va sillabuslarini ishlab chiqishda milliy musiqa an'analari asosida o'qitishni tashkil etish;

musiqa mashg'ulotlarini olib borishda jonli, tabiiy ijrolar asosida o'qitishni tashkil etish va hokazo.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Karomatov F. M. O'zbek xalq musiqligi merosi. XX-asr. Terma, yalla, qarsak, kirish maqolasi. – Toshkent. G. Gulom nomidagi Adabiyot va sanat nashriyoti. 1985. B. -2 - 23.

Ibrohimov O.A. „O'zbek xalq musiqa ijodi“ (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994y. B.62.

Panjiyev Q. B. O'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2022. B. 80.

